

ARAB TILIDAGI KO‘PLIK SHAKLLARINING O‘ZBEKCHADA QO‘LLANISHI

ADCHTI

Olimov Zuhrobiddin Shahobiddin o‘g‘li
Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasini
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek tilshunosligi terminlarida arabcha ko‘plik shaklidagi so‘zlarning qo‘llanilishi, termin o‘rtasidagi aloqadorlik asalalari, tilshunoslik terminlarining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek tiliga arab tilidan kirgan siniq ko‘pliklar va ularning tildagi o‘rni va ularning tilimizga kirish tarixi kabi masalalarga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: *ulamo, a‘mol, a‘fol, maloika, Mashoyix, fuqaro, avliyo, sahoba, rusum, inshoot, aqvom, arbob, hudud, asbob, arvoq, Arabiston, Al-Farg‘oniy, Beruniy, ko‘plik shakllari, siyosiy-vaziyat, o‘tmish xalqlari, bitmoq feli, tasavvur, tasvir.*

Аннотация: В данной статье речь идет об употреблении арабских слов во множественном числе в узбекских лингвистических терминах, о соотношении терминов, об особенностях лингвистических терминов, о ломаном множественном числе, пришедшем в узбекский язык из арабского языка, и об их происхождении в языке и истории их возникновения. ВХОД В НАШ ЯЗЫК.

Ключевые слова: *улама, амаль, афол, малоика, Машаих, гражданин, святой, сподвижник, русум, структура, аквам, человек, территория, инструмент, призрак, Аравия, Аль-Фаргани, Беруни, формы ко‘плика, политическая ситуация, народы прошлого, глагол закончить, воображение, образ.*

Abstract: This article deals with the use of Arabic words in the plural in Uzbek linguistic terms, the relationship between terms, the features of linguistic terms, the broken plural that came to the Uzbek language from the Arabic language, and their origin in the language and their history occurrence, entrance to our language.

Keywords: *ulama, amal, afol, maloyka, Mashaikh, citizen, saint, companion, rusum, structure, aquam, person, territory, instrument, ghost, Arabia, Al-Fargani, Beruni, forms of kopluk, political situation, peoples past, verb to finish, imagination, image.*

Ma‘lumki, o‘zbek tili leksik boyligini shu tilning o‘ziga xos leksik qatlami bilan birga o‘zlashgan qatlam ham tashkil qiladi. Xalqlar o‘rtasida turli sohalardagi o‘zaro aloqalar u yoki bu xalqning tillariga ta‘sir ko‘rsatgan. Bir tilga xos bo‘lgan fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi tilga o‘tib, o‘zlashib ketgan. O‘zbek xalqi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo‘lganligi, boshqa tillardan o‘zbek tiliga ham ko‘plab so‘zlarning o‘zlashuviga olib keldi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tili lug‘at tarkibida o‘zlashgan leksik qatlamni vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Buni arab tili misolida ko‘rib chiqamiz.

Lutfinisa Dehqanovaning ta‘kidlashicha, eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida arab tiliga xos bo‘lgan ko‘plik qolipdagi so‘zlari keng iste‘moldadir. Masalan, *olim – ulamo, rab – arbob, sabab – asbob, asl – usl, asar – asor, faqir – fuqaro, amal – a‘mol, xulq – axloq, had – hudud* va h.k. Masalan, “*Ulamoning fasodi ta‘m bila va fuqaroning fasodi riyo birla*” (“Nasoyim ul-muhabbat” 85-bet). “*Bu toifaning a‘mol va a‘fol va muomilot va riyozotdin va ba‘zini zikr qilmoq*” (“Nasoyim ul-muhabbat” 85-bet).

Shodmonova Gulhayoning ma‘lumot berishicha, Arabcha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishidagi yana boshqa bir manba bu arab kitobchilik san‘atining butun borlig‘i bilan turkiy xalqlar, birinchi navbatda, o‘zbek xalqi madaniyatiga kuchli ta‘sir etishi bilan bog‘liqdir. Biz bilamizki arab kitobchiligi islom dini yoyilishining dastlabki bosqichlarida muqaddas Qur‘oni Karimning ko‘chirib tarqalishiga bo‘lgan ehtiyoj natijasida shakllandi va rivoj topdi. Bunday

deyishimiz uchun ma’lum bir asoslar bor. Chunki ba’zi manbalarda yozishlaricha, islom dinining paydo bo’lishiga qadar arablar o’zlarining muayyan bir yozuvlariga ega bo’lmagan. To’g’ri, III-IV asrlarga qadar ularda oromiy yozuvining arabcha variant qo’llanishda bo’lgan, lekin bu yozuv turi u qadar yoyg’in bo’lmaganligi sababli arab xalqi tarixi va hayotiga oid rivoyat hamda ertaklar, asosan, avloddan avlodga og’zaki rusumda yetib kelgan. Islom dinining paydo bo’lishi va uning natijasida arab xalifasining tuzlishi bilan arab xalqining madaniy, siyosiy, iqtisodiy, hayotida keskin o’zgarishlar sodir bo’ldi.

L.Dehqanova eski o’zbek tili va hozirgi o’zbek adabiy tilida ko’plik qolipidagi arabiy so’zlar ko’plik ma’nosini anglatgani holda keng qo’llanadi. *Malak – maloika, she’r – ash’or, hayvon – hayvonot, sohib – sahoba, ruh – arvoq* va h.k. “*Nabotot va hayvonot kalominiyng samoi va maoniysiga vuquf topmoq*” (“Nasoyim ul-muhabbat” 85-bet).

“... *Mashoyix diydorlaridin bahramand va suhbatlaridan anjumand ermish*” (“Nasoyim ul-muhabbat” 85-bet). “*Ajdodlari arab bo’lgan shayx Muborak ham ham Bianadagi xalq harakatida ishtirok etgan*” (“Humoyun va Akbar” 275-bet). *Chinorning dastlabki ellik – oltmish yildagi o’sish bir avlod umriga qiyos etgulikdir* (“Humoyun va Akbar” 286-bet).

Ramazonova Shahodatning maqolasida VI asrning o’rtalariga qadar Arabiston yarim orolida yashagan qabila, urug’larning hayot tarzi qoloq bo’lib, ularning mutloq ko’pchiligida ibtidoiy-patriarxal tuzum munosabatlari hukum surganligi haqida ma’lumotlar berilgan. Ko’chmanchi badoviy oilalari, urug’lari o’z chorva mollari uchun yer-suv, o’tloq qidirib keng sahrolar bo’ylab kezganlar. Hijozning bosh shahri-Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarning turli mintaqalar bilan bog’langanligi, savdo -tijorat sohasi esa mana shu arab tilining yoyilishiga keng yo’l ochib berdi.

Hamraqulova Shahzoda arabcha siniq ko’pliklar o’zagidan o’zgarib hosil bo’lishi haqida quyidagicha ma’lumotlar beradi. *Varoq – bo’yi va eni ma’lum hajmga ega bo’lgan, yozish uchun mo’ljallangan. Avroq – “varoq”ning ko’plik shakli. Kitob – ma’lum matnli varoqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo’lmagan bosma asar. Kutub – “kitob” so’zining ko’plkdagi shakli. Valad – o’g’il bola, farzand. Avlod-ota-bobodanqolgan nasl.*

Ilm – o’qish, o’rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim. *Ulum – “ilm” so’zining ko’plkdagi shakli. Xalq – bir yerda yashovchi odamlar yig’indisi. Xoliq – “xalq” so’zining ko’pligi. Yaratuvchi ijodkor. Xilqat – yaratilgan, bunyodga kelgan narsa yoki kimsa. Fikr – aynanfikr – zikr. Afkor – “fikr” so’zining ko’pligi. Tafakkur – fikr yuritish, o’ylash, fikrlash. Kabir – katta, ulug’. Akbar – eng katta, ulkan.*

Xulosa qilib shuni aytadigan bo’lsak, boshqa tillar qatori arab tilidagi so’zlar, qo’shimchalar ham tilizmizning anchagina qismini tashkil qiladi. Bunday shakllar nutqimizda muqim o’rnashib qolgan va nutqimizni ravon hamda jozibali qilishimizda shu kabi boshqa tillardan kirgan shakllarning ham o’rni mavjuddir.

Arab tilidagi ko’plik qo’shimchasi “ot” fe’lning funksional shakllarni hisoblangan harakat nomi (masdar) va sifatdoshlarga qo’shib, ko’plik shaklini hosil qiladi. Bunday so’zlarning ham birlik, ham ko’plik shakllari o’zbek tilida o’zlashgan bo’lib, keng iste’moldadir. Lekin bu so’zlarning har ikkala shakli ham mustaqil ma’no anglatuvchi so’z bo’lib, boshqa-boshqa grammatik vazifalarni bajaradi. Masalan,

a) “harakat nomi” – masdarga “ot” qo’shilgan.

isloh-islohot (4-bob masdari)

hisob-hisobot (3-bob masdari)

b) sifatdoshlarga “ot” qo’shimchasi qo’shib ko’plik shakllari yasaladi.

Masalan, *mavjud – mavjudot, mahsul – mahsulot.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arabiy so’zlarning ko’plik shakllari ham eski o’zbek tili va hozirgi o’zbek adabiy tilida keng qo’llangan va ular o’rniga qarab alohida-alohida grammatik funksiyalarni bajarib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. “Nasoim-ul muhabbat”. – Toshkent, 2002.
2. Axrorov Alisher Akbarovich. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49–53. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/2816>
3. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG‘ON SO‘ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
4. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG‘AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
5. Dehqanova L. Arabcha ko‘plik shakllarining o‘zbek tilida qo‘llanilishi// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 18-soni// <https://doi.org/10.5281/zenodo.7846917>.
6. Ermatov Ikhtiyar. (2022). *HYPERO-HYPONYMIC RELATIONS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF MORPHEMES AND WORD FORMATION LEVELS OF UZBEKI*. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 133-136. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1737>
7. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B.120-251.
8. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi, 1-jild. – Toshkent: 1997.
9. Ramazonova Sh. International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India <https://econferencezone.org> 21st July 2022
10. Muxidillayev, F. (2022). LINGVOPOETIKANING O‘RGANILISHIGA DOIR QARASHLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 315-320.
11. Pardayeva, I., & Mahmudboyeva, F. (2022). ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 562-564.
12. Pirimqul Qodirov. Humoyun va Akbar. – Toshkent: Sharq, 2006.
13. Sharipov, F. G. (2021). Attitude to the plural affix in Uzbek language. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(1), 50-64.
14. Yodgorov, H., & Zulayho, T. (2022). *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY*. *Journal of Northeastern University*, 25(04).
15. Sayidrahimova, N. S., & Kabulova, U. S. (2020). General Theoretical Aspects In Synchronical Typological Learning Of English Adverbs (Adverb Goals). Published in *International Journal of Research Available at <https://edupediapublications.org/journals>. Available online: <http://edupediapublications.org/journals/index.php/IJR/P>. –Indiya, 384-398.*
16. Kabulova, U.S. (2023). “Filologiya” termini haqida. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Sayidmaxamadovna, K.U., & Isakovna, B.R. (2023). “Paremiya” haqida. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 773-777.
18. Sayidmaxamadovna, K.U., & Muratovna, K.Z. (2023). “Frazeologizm” atamasi haqida. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 711-715.
19. Muratovna, K.Z., & Sayidmaxamadovna, K.U. (2023). Tilshunoslarning “Frazeologik birlik” atamasi haqidagi qarashlari. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 768-772.
20. Sayidmahamadovna, S.N., Saidmakhamadovna, K.U., Komiljonovna, K.G., Azimjanovna, T.O., & Ganiyevna, M.D. (2020). Ambiguities in uzbek language-syntactic homonyms. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 6542-6548.
21. Kabulova Umida Sayidmakhamadovna. Ta’limni insonparvarlashtirish to’g’risida// *JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN (Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.*

22.Kabilova Zebiniso Muratovna. ENKLITIKA. FONOLOGIZATSIYA. EMFATIK URG‘U.// JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN(Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.

23.Kabilova Z.M. O‘zbek tilining fonosemantik vositalari//Monografiya. – Toshkent,

2024.

24.ҚОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ* Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, (2), 85-99.

25.Muhtarovna, Q. N. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF GENDER LINGUISTICS RESEARCH. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(4), 987-990.

26.Muxtarovna, Q. N. (2023, October). DIE LEITMOTIVE USBEKISCHER VOLKSEPEN. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 05.10, pp. 490-492).

27.Qodirova, N. M., & Dilafruz, R. (2023). EXPRESSIONS OF COMPLIMENTS. *IMRAS*, 6(6), 185-188.

28.MATERIALLARI VA NUTQ FAOLIYATLARI ASOSLARINI O‘RGATISH. *Conferencea*, 76-77.

29.Mukhtarovna, K. N. (2021). Compliment Conceptuality and Speech Implementation. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(11), 69-72.

30.Kadirova, N. M. (2021). THE USE OF ELEMENTS OF TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN TEACHING MONOLOGUE SPEECH FOR TEACHING GERMAN LANGUAGE. *Экономика и социум*, (5-1 (84)), 217-220.